

**ERMAK VA NA'MATAK O'SIMLIGINING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARINI  
O'RGATISH ORQALI TALABALARNING XALQ TABOBATIGA BO'LGAN  
QIZIQISHLARINI OSHIRISH.**

**M A Abdurahimova**

*FarDU Agrar qo'shma fakultet o'qituvchisi*

**R.T.Muratova**

*OshGU .Zav.kaf.Agronomii i prikladnoy geodezii. ,*

*Yestestoznaniya,turizm i agrarnix texnologii.*

**Annotatsiya.** O'simliklarning dorivolik xususiyati haqida gap ketganda, ularni aynan qaysi turi, qanday kasallik uchun qo'llanilishini bilishimiz kerak. Shu o'simliklar haqida to'xtalib o'tamiz.

**Kalit so'zlar.** O'simlik, tabiat, dorivorlik xususiyati, xayvonlar, tuproq, oziq - ovqat, zaxarli qayta ishlash.

Tabiatning bebaho ne'mati bo'lmish o'simliklar insoniyat uchun noyob boylik manbai desak mubolag'a emas. O'simliklar oziq – ovqat, sanoat materiallari va dorivorlik xususiyatiga ko'ra qadimdan insonlar va hayvonlar uchun foyda keltirmoqda. O'simliklarning dorivolik xususiyati haqida gap ketganda, ularni aynan qaysi turi, qanday kasallik uchun qo'llanilishini bilishimiz kerak. Shu o'simliklar haqida to'xtalib o'tamiz. Tanadagi balg'am ko'chiruvchilar. Bu xususiyatga ega bo'lgan o'simliklar tarkibida saponin deb ataluvchi organik birikma bor. Xozircha saponinlarni sof xolda ajratib olish qiyin. Chunki u tez parlanuvchan bo'lib mustaxkam birikma emas. Ajratib olingan ayrim qismlari oq poroshok xolida bo'ladi, zaxarli, issiq qonli mavjudotlarning qonini tez parchalash (gemoliz) xususiyatiga ega. Hatto oz miqdordagisi xam silliq qatlamlarni qitiqlaydi, aksa urdiradi, ko'zni yoshlantiradi, iste'mol qilganda zaxarlaydi. Qayta ishlanib, dori sifatida qo'llanganda inson organizmidagi buyrak oshqozon osti va boshqa bezlarning suyuqlik ajratishini tezlashtiradi. Saponin o'zining kimyoviy xususiyatlariga ko'ra bir necha gruppaga bo'linadi. Triterpin gruppasi.

**Tadqiqot obyekt**i Saponinni saqlovchi bu gruppada o'simliklar kishi organizmida bo'lgan bezlarning faoliyatini kuchaytiruvchi dori sifatida ishlatiladi. Bunday o'simliklar respublikamizda ko'plab uchraydi, ular ichida etmak-bex deb ataluvchi o'simlik o'zida saponinni ko'p miqdorda saqlaydi. Etmak— ko'p yillik o'simlik bo'lib, adir, ekin ekiladigan yerlarimizda uchraydi. Uning ildizida 25 protsentgacha saponin bor. Ildizning og'irligi ba'zan 30—35 kilogrammgacha etadi. Bu ildizning xosiyati ko'p: meditsinada dori sifatida, oziq-ovqatda (nisholda) va konditer sanoatida, har turli kremlar tayyorlashda, qimmatbaxo qorako'l terisini, jundan ishlangan oliy navli buyumlarni yuvish, oxar berishda va nixoyat qurilishda ishlatiladigan ko'pik (penobitonlar)larni tayyorlashda qo'llaniladi. Etmakka chetdan bo'lgan talab katta.



**Tadqiqotning predmeti** Yersovun. Bu o'simlik adir va tog'larda tarqalgan. Qashqadaryo, Buxoro, Samarqand va Toshkent viloyatlarida uchraydi. Erta ko'klamdan boshlab adirdagi bug'doyzorlarda o'sa boshlaydi. Yer ostidagi ildizi kartoshkaga o'xshaydi. Qishda quriydi. Bahor kelishi bilan kartoshkasidan una boshlaydi.

**Tadqiqot usullari** Bu o'simlik urug' orqali xam ko'payadi. Kartoshkasi yosh davrida tuganak ko'rinishida bo'ladi. Yil sayin asta-sekin kattalashib, nixoyat bir va undan ortiq kilogrammgacha etadi. Urug'i yumaloq va usti qattiq qobiq bilan qoplangan bo'lgani uchun maxalliy xalq uni yig'ib tasbex qilar edi. Shu sababli uni tasbex o'simligi deb xam ataydilar. Qoramug'. Bu o'simlik zaxarli bo'lganidan uni karantin o'ti deb xisoblaydilar. Shu sababli ekinzorlar va o'tloqlarda unga qarshi kurash olib boriladi. Bu o'simlik ustida o'tkazilgan kimyoviy analizlar uning er usti organlarida saponin borligini ko'rsatdi. Bu saponin «triterpen» gruppasiga oid bo'lib, kishi organizmidagi ichki bezlarning ishlash tezligini oshiradi, natijada balg'am ko'chadi. O'simlik tarkibidagi glyukozid voksigozid va sagtezid deb ataladi. O'zbekiston sharoitida bunga o'xshash ko'pgina o'simliklar o'zida saponin saqlaydi. Kichik qizg'aldoq, gunafsha, chinnigul va qachim singari o'tlar bunga misol. Ularning kimyoviy tarkibi xali yaxshi o'rganilmagan. Surgi sifatida ishlatiladigan o'simliklar Ixroja o'simligidir. Ko'p yillik o'simlik bo'lib, Surxondaryo «oblastidagi tog'larda o'sadi, bo'yi 30 santimetr va undanda balandroq bo'lishi mumkin. Yaprog'i va tanasida oq sutga o'xshash suyuqlik bor. Tanasi kesilsa yoki sindirilsa oq sutga o'xshash suyuqlik ajraladi. Mahalliy xalq bu o'tning yer ustki organlarini qaynatib surgu sifatida ishlatadi. Ilmiy tekshirishlar natijasida ma'lum bo'ldiki o'simlikning yer ustki organlarida oshlovchi moddalardan qand, smola, organik moddalar saqlanar

ekan. Ildizidan tayyorlangan poroshok esa qayt qildirish xususiyatiga ega. Kanakunjit o'simligi bizning sharoitda bir yillik o'simlik tashlandiq yerlarda yaxshi o'sadi, 2-4 m gacha ko'tariladi. Urug'i kanaga o'xshaydi. Ustisilliq xoldor, kuzda pishadi. Urug'i presdan o'tkazilsa asal rangidagi yog' hosil bo'ladi. Yog'ini ishlatishdan oldin taksalbumin moddalar ajratib olinadi. Sof holdagi och-sariq yog'ni meditsinada surgu dorisi sifatida qo'llaniladi. Bundan tashqari bu yog'dan sovun chiqarishda, samolyot qurilishida lak, bo'yoqlar tayyorlashda ham foydalaniladi. Yuqoridagilardan tashqari Respublikamizda tarkibida alkaloidlar bor o'simliklar ko'p. Bular ko'knori, dukkaklilar va ituzumlardir. Ko'pgina alkaloidlar inson va hayvonlar organizmiga kuchli fiziologik ta'sir etish qobiliyatiga egadirlar. Shu sababli ulardan ko'pgina kasalliklarni davolashda qo'llanadigan dorivorlar tayyorlanadi. Tabiat in'om etgan yana bir o'simliklardan biri ne'mat o'simligidir. U foydali xususiyatga ega. Shu o'rinda na'matak ham inson uchun eng foydali ne'matlardan biri. Na'matak o'simligi ko'plab biologik moddalarga boy o'simlikdir. Na'matakning ildizidan tortib, mevasigacha shifobaxsh xususiyatga ega bo'lib, birinchidan tabiiy va zararsiz, ikkinchidan esa iqtisodiy tomondan hamyonbopdir. Na'matak o'simligi ko'plab kasalliklarning oldini oladi va davolaydi. Gripp kasalligi o'tkir virusli yuqumli kasallik bo'lib, bu kasallikning oldini olish uchun na'matakning damlamasi va sharbat va shinnilarini me'yoriy is'temol qilish bu kasallikdan xalos qiladi. Grippning oldini olish va davolashda qo'llaniladigan kimyoviy dori vositalari ham ko'plab topiladi. Avitaminoz kasalligini oldini oladi va davolaydi. Organizmning immun tizimi va vitaminlarga bo'lgan talablarini qondirish uchun kimyoviy dori preparatlaridan: Imunomodulin 25000-30000 so'm, immunal – 15000 20000 so'mni tashkil qiladi. Organizmning muhim organlaridan biri bu jigardir. Organizmni turli zararli moddalardan tozalaydi, va yana bir qancha hayotiy muhim jarayonlarni bajaradi. Na'matak mevasidan tayyorlangan damlamani ichish jigar kasalliklarni oldini oladi. Na'matak juda yaxshi surgu va organizmlardagi qon tomirlaridagi tiqinlar (shlak) larni ketkazuvchi xususiyati borligi xam aniqlangan. Bundan tashqari o'simlikning mevalardan tayyorlangan damlama o'pka sili, jigar, o't qopchasini (pufagi) ni yalig'lanishi, terlama (tif), qizilcha, ichak, buyrak, qovuq kasalliklarini kasalliklarni davolashda foydalaniladi. Shu bilan birga na'matak mevasi asosida qilingan qaynatma qon to'xtatuvchi, tana xaroratini tushiruvchi tushiruvchi sifatida iste'mol qilinadi. Mevasi tanaga quvvat bag'ishlaydi, moddalar almashinuvini yaxshilaydi, buyrak va siydik yo'li kasalliklarini davolashda siydik yo'li kasalliklarni davolashda siydik haydashi uchun ishlatiladi. Barglaridan tayyorlangan qaynatma me'da og'riqlariga foydasi nihoyatda katta hisoblanadi.

Buyuk sharq allomasi Abu Ali ibn Sino bemorlarning davolashda na'matak o'simligini mevasi, bargi va guli ildizidan tayyorlangan damlama qaynatmalaridan ichish va mevalarini is'temol qilishni tavsiya qilar edi. Olimning aniqlashicha, na'matakning barcha turlari tozalovchi va suyiltiruvchi xususiyatga egadir. U

quloqdagi qurtlarni o'ldiradi, quloq shang'illashi va g'uvullashiga, tish og'rig'iga foyda qiladi. O'simlikning yovvoyi turlarining mevasi peshonaga chaplansa, bosh og'rig'idan xalos bo'ladi. Barcha turlari burun teshiklaridagi tiqinmalarni ochadi. U tomoqdagi va bodomsimon bezlardagi shishlarga ham foyda ekanligini aniqlagan va foydalangan. Kimyoviy preparatlarni muntazam is'temol qilish me'da-ichak va jigar, buyrak kabi hayotiy muhim organlarning funksiyasini buzadi. Xususan og'riq qoldiruvchi (Bol nol, Dollex, Sinepar) kabi tabletkalar vaqtinchalik og'riq qoldiruvchi hisoblanadi. Bu qatordagi dori vositalarini ko'p miqdorda ichish me'daning shilliq pardasini yemirib, o'tkir surunkalik kasalli gastrit kasalligiga sabab bo'ladi. Ayniqsa xomiladorlik davrida bo'lajak onaning dori tabletkalarini ichish tug'ulajak farzandga har tamonlama ta'sir qiladi. Bu esa yurtimiz poydevori bo'lgan farzandlarga juda katta ta'sir qilishi mumkin.

**Xulosa.** Zamonaviy tibbiyotda na'matak mevasidan damlama, ekstrakt va ho'l mevasidan sharbat hamda hap dori va xolosis kabi dorivor vositalar tayyorlanadi. Mazkur dori vositalari avitaminoz va ateroskerosni davolashda o't haydash maqsadida ishlatiladi. Karotolin preparati, qo'tir, qichima, ekzema, psoriasis kabi teri kasalliklarini davolashda qo'l keladi. O'simlikdan samarali foydalanish yuqorida bayon qilingan kasalliklarni oldini olib, katta iqtisodiy natijalarga erishish mumkin. Har bir inson yil davomida xilma xil ta'sirlar natijasida turli kasalliklar bilan og'rishi mumkin. Turli so'rovlar va suhbatlar davomida natijasida bir kishi eng ko'p miqdorda is'temol qilinadigan dori vositalari, og'riq qoldiruvchi tabletkalar ekanligi aniqlandi. Organizmdagi deyarli barcha kasalliklarni kelib chiqishiga asosiy sabab bu organizmning imunitetini pasayishi va yo'qolishidan. Na'makat damlama va qaynatmasini, mevasini is'temol qilishni xar bir kishiga tavsiya qilaman.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Leon Lachman "armaceutical Dosage Forms: 'arenteral Medications, Second edition, Volume 2. 2nd edition., Informa 'ealt'care; 2 edition (Novemb Maxkamov S.M., Maxmudjonova K.S. Tayyor dori turlari texnologiyasi. Toshkent. 2010. "EXTREMUM 'RESS". 367 b. (darslik)
2. Maxkamov S.M., Maxmudjonova K.S. Tayyor dori turlari texnologiyasi. Toshkent. 2010. B. 255. (darslik).
3. Mirolimov M.M. Yig'indi preparatlar texnologiyasi. Toshkent. 2001. "Abu Ali Ibn Sino" 367 b.
4. Mirolimov M. Farmatsevtik texnologiya asoslari. Toshkent. 2007. "Fan" 343 b.
5. Sandee' Nema, Jo'n D. Ludwig (2010) "armaceutical Dosage Forms - 'arenteral Medications, T'ird edition: Volume 2: Facility Design, Sterilization and 'rocessing., CRC 'ress; 3 edition (August 26, 2010)

6. Turdaliev A. T. et al. Influence of irrigation with salty water on the composition of absorbed bases of hydromorphic structure of soil //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2022. – T. 1068. – №. 1. – C. 012047.

7. Абдурахимова М. А. Dorivor o ‘simliklarning o ‘sishi va rivojlanishi va dorivor xususiyatlaridan foydalanish //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D3. – C. 35-42.

8. Abdurahimova M. et al. HEALING PROPERTIES OF MEDICINAL WHITE AND BLACK (SESAME) SESAME //Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – №. 7. – C. 100-104.

9. Abdurahimova M., Nazirjonov U., Muhammadjonov R. DORIVOR ECHINACEA PURPUREA O ‘SIMLIGINING FOYDALI XUSUSIYATLARI VA UNDAN HALQ TABOBATIDA FOYALANISH //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D6. – C. 197-201.

10. Abdurahimova M., Mamadaliyeva D., Siddiqova G. DORIVOR O ‘SIMLIK ISIRIQNING SHIFOBAXSH XUSUSIYATLARI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. D6. – C. 185-188.

11. Abdurahimova M., Nazirjonov U., Muhammadjonov R. USEFUL PROPERTIES OF THE MEDICINAL PLANT ESHINACEA PURPUREA AND ITS USAGE IN FOLK MEDICINE //Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – №. 6. – C. 197-201.

12. . JAMOLOV R., BOBOYEV B., O‘KTAMJONOV S. FARG‘ONA VODIYSIDA ONA ASALARI YETISHTIRISHNING ASALARICHILIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI VA OILA MAHSULDORLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATI SCIENCE AND INNOVATION.–2022.–T. 1.–№. D7.–C. 43-49.143.

13. R JAMOLOV, H RAXIMOV, A TOJALIYEV. ASALARINING HARAKATLANUVCHI A‘ZOLARI. JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN 1 (7), 282-287